(2). Begaliyev N., Turobov A. Samarqand toponimiyasi. SamDCHTI nashri, 2015, 156-bet.
(3). Uluqov N. O‘zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi. Toshkent, 2008, “Fan”, 192-bet.
(4). Do‘simov Z., Egamov X. Joy nomlarining qiqacha izohli lug‘ati. Maktab o‘quvchilari uchun, “O‘qituvchi”, Toshken, 1977.
(5). Nafasov T., Nafasova V. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati. Toshkent, 2007, “Yangi asr avlodi”, 88-bet.
(6). Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. “Universitet”, Toshkent, 1977.
(7). Qorayev S. Toponimika. O‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, Toshkent, 2006, 320-bet.
(8). Xudoyberganov R.Y. [va boshq.]. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati [matn], lug‘at, Toshkent, 2022, “Donishmand ziyosi”, 624-bet.
(9). B.O‘rinboyev. Asrlardek barhayot nomlar (Samarqand viloyati toponimlari izohi lug‘at), Samarqand, 2003, 264-bet.
(10). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent, 2007, 687-bet.

Kuraxmedov Azamat Erkinovich (Samarqand davlat Chet tillar instituti dotsenti, t.f.n.;e-ail:azamat@bk.ru)

SAMARQAND JADIDCHILARINING TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATIDA TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Samarqand jadidchilarining Turkiston jadidchilik harakatida tutgan o‘rni haqida ilmiy mulohazalar keltirilgan. Yangi usuldagi maktablarning ko‘payishi, musulmonlarning ijtimoiy-siyosiy g‘oyalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi, jadidlar o‘lkadagi matbuot sahifalarida maktablarning mohiyati, maqsadi, taraqqiyot yo‘lidagi ahamiyatlari haqida ilmiy-nazariy, publitsistik maqolalar yozib jadidchilikni targ‘ib etishlari kabi mazasalalr yuzasidan fikrlar izohlangan.*

Kalit so‘zlar: *jadid, jadidchilik, jamiyat, erkinlik, ozodlik, adolat, harakat.*

Курахмедов Азамат Эркинович (доцент Самаркандского государственного института иностранных языков)

РОЛЬ САМАРКАНДСКИХ ДЖАДИСТОВ В ДЖАДИДСКОМ ДВИЖЕНИИ ТУРЦИИ

Аннотация. *В статье представлены научные комментарии о роли самаркандских джадидистов в туркестанском джадидском движении. Распространение школ нового образца положительно влияет на общественно-политические идеи мусульман, а джадиды пропагандируют джадидизм, написав на страницах прессы страны научно-теоретические и публицистические статьи о природе, назначении и значении школ.*

Ключевые слова: *джадид, джадидизм, общество, свобода, освобождение, справедливость, действие.*

Kurakhmedov Azamat Erkinovich (Associate Professor of Samarkand State Institute of Foreign Languages)

THE ROLE OF SAMARKAND JADISTS IN THE JADID MOVEMENT OF TURKEY

Annotation. *This article presents scientific observations on the place of Samarkand Jadidists in the Turkestan Jadid movement. The article explains such issues as the proliferation of new-style schools, their positive impact on the socio-political ideas of Muslims, and the Jadidists' promotion of Jadidism by writing scientific, theoretical, and journalistic articles in the country's press about the essence, purpose, and importance of schools on the path to development.*

Key words: *jadid, jadidism, society, freedom, liberation, justice, action.*

Kirish. XIX asr ikkinchi yarmida butun Turkiston o‘lkasida kuzatilgani kabi, Samarqand madaniy hayotida ham ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishda o‘ziga xos yangi oqim, ya’ni *jadidchilik* sohasi tarix sahnasiga kirib keldi. Jadidlarning asosiy maqsadlari o‘lkada «yangi usul» maktablarini ochib, eski o‘quv usulini yangicha asosda qurish edi. Samarqandda bunday maktablarga asos solgan atoqli vakillardan – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulqodir Shakuriy va Hoji Muinlarni ko‘rsatish mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Sadriddin Ayniyning yozishicha, 1903-yili Abdulqodir Shakuriy tashabbusi bilan Rajabamin qishlog‘ida yangi usul maktabi ochiladi. Bu maktab uchun Abdulqodir Shakuriy tomonidan «Jome’ ul-hikoyat» [1] nomli darslik yaratiladi. Abdurauf Fitrat «Bayonoti sayyohi hindi» («Hind sayyohining bayonoti») kitobida qahramon tilidan «Samarqandda bir necha yangi boshlang‘ich maktablar bo‘lib, ular ichida yang yaxshisi Shakuriy maktabidir. Bu maktab asta-sekin kerakli cho‘qqini egallaydi. Samarqand maktablarini ko‘rib chiqib, ulardan mamnunman», deb ta’kidlaydi (2).

Muhokama. 1903-yili Samarqand shahrining Xo‘ja Nisbatdor mahallasida Hoji Muin boshchiligida usuli jadid maktabi ochilgan. U maktabdorlikdan daromad olishni o‘ylamagan, ma’rifatparvar zot maktab-maorif yo‘lida fidoyilik ko‘rsatib «Rahnamoyi savod» nomli alifbo nashr ettirgan va kutubxona tashkil et-

gan. Birinchi yangi usuldagi maktab 1904-yili Xo'jandda ham ochiladi. Maktabga Toshkentdan o'qituvchi chaqirtiriladi. Bu esa hammani quvontirib, yangi usul maktablarini ochishga ruhlantiradi. Yangi o'quv usullari bilan ajralib turgan bunday maktablar soni asta-sekin Samarqandda ko'payib boraverdi.

Turkiston jadidlari otasi nomini olgan buyuk ma'rifatparvar, pedagog, jurnalist, muftiy Mahmudxo'ja Behbudiy turli ta'qib va qiyinchiliklarga qaramasdan, 1903-yil oxirida Rajabamindagi Abdulqodir Shakuriy maktabini Samarqandning Eski shahar «Qo'shhovuz» mahallasida joylashgan hovlisiga ko'chirib keltiradi va bu maktabga beg'araz yordam ko'rsatadi. 1905-yili Mahmudxo'ja Behbudiyning o'zi Samarqandning Kaftarxona qishlog'ida jadid maktabi ochadi. Unga 40 ga yaqin o'quvchi ta'lim oladi. 1906-yili «Samarqand» gazetasi muxbiri Almatovning yozishicha, «Oddiy maktablarda 3–4 yil ichida o'rganiladigan bilimlarni bu maktabda o'quvchilar bir yilda o'zlashtirib olganlar. Shu bilan birga, maktabda dunyoviy ilmlar qatorida diniy bilimlar ham berilgan [3].

Natijalar. Mahmudxo'ja Behbudiy o'quvchilar uchun 1904-yili «Muntahabi jug'rofiyai umumiy» («Qisqacha umumiy jug'rofiya»), «Kitobat ul-atfol» («Bolalar maktubi»), «Muxtasari tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), 1905-yili «Amaliyoti islom» («Islom amaliyoti»), «Madhali jug'rofiyai umumiy» («Umumiy jug'rofiya»), 1908-yili «Muxtasari jug'rofiyai Rusiy» («Rusiyaning qisqacha jo'g'rofiyasi») kabi darslik va o'quv qo'llanmalarni yozgan. Milliy maorif va madaniyatni rivojlantirish uchun Behbudiy Samarqandda 1908-yili Turkistonda birinchi marta musulmonlar uchun bepul qiroatxona-kutubxona ochib, o'z mablag'i hisobiga uni boyitib boradi. U Turkistonning birinchi geografik xaritasini tuzadi va maktablarda foydalanish uchun nashr qildiradi [4].

Umuman olganda, Behbudiy maorif tizimini isloh qilish uchun faoliyat olib borgan. Behbudiyning yozishicha, islohni maktab va madrasalardan boshlash zarur, chunki millat hayoti ta'lim-tarbiya bilan belgilanadi [5]. Yangi usul maktablari Samarqandda birin-ketin ochila boshlaydi. Shunday maktablardan birini shaharda Abdushukurov 1907-yili ochadi. Natijada usuli jadid maktablari xalq orasida, asta-sekin bo'lsada, obro' topa boshlagan. Jadidlar ma'rifat, madaniyatni rivojlantirish, musulmonlarni bilimli va ma'rifatli qilish uchun kurashganlar.

Samarqand jadidlari maktab-maorif ishlariga shu qadar qattiq kirishdilarki, yoshlarni ko'proq til bilishga, shu bilan bilim doirasini kengaytirishga da'vat etdilar. Ko'p tillarni bilish bilan kofir bo'lmaydi, degan aqidani targ'ib qildilar, o'zlari ham rus tilini o'rganib, o'quvchilarni ham o'rgata boshladilar. Ular boshqa millatlarning, ayniqsa, rivojlangan Yevropa tillari, madaniyatini o'rganish, maktab-maorif ishlarida ularning tartiblarini joriy etishni targ'ib qildilar. Jurnalist Andreevning yozishicha, «Madaniyatli musulmonlar zamonaviy, taraqqiy etgan kelajak hayotda ularning farzandlaridan nimalarni talab qilayotganini anglab, rus-tuzem maktablaridan qoniqmay, o'z farzandlarini ma'lumotli qilishning boshqa yangi yo'llarini axtarib topib, 1900–1905-yillari yangi usul maktablari ochishni boshladilar va ularning soni asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, o'lkada ko'payib bordi» [6]. Jadidlar maktab-maorif ishlarini Samarqandda yanada rivojlantirib, maktablarning xalq orasida obro' qozonishi natijasida ularning soni ko'paya boshladi. «Turkestanskiy uchitel» gazetasi muxbiri A.Enikeevning yozishicha, yangi usul maktablari o'zining taraqqiyotida turib, mahalliy xalq orasida obro' qozondi [7]. O'z xalqi ravnaqi, rivoji uchun kurashgan jadidlar «taraqqiyotga erishishimiz uchun, o'z vrachlarimiz, iqtisodchilarimiz va ma'lumotli kishilarimiz bo'lishi uchun tezda maktab va madrasalarni yangicha isloh etishimiz kerak», [8] degan shior ostida harakat boshlaganlar, deb yozadi «Tujjor» gazetasi.

Yangi usuldagi maktablarni nafaqat Samarqandda, balki Turkiston o'lkasida ko'payishi, musulmonlarning ijtimoiy-siyosiy g'oyalariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu esa chor ma'murlarining yangi usul maktablari ustidan nazoratni kuchaytirishiga olib keldi. Jadidlar o'lkadagi matbuot sahifalarida mazkur maktablarning mohiyati, maqsadi, taraqqiyot yo'lidagi ahamiyatlari haqida ilmiy-nazariy, publitsistik maqolalar yozib jadidchilikni targ'ib etdilar.

Mahmudxo'ja Behbudiy yozadiki, «Siz muhtaramlar ham o'z avlodingizni va aziz bolalaringizni, agarda xohlasangizki, sizdan ko'ra taraqqiy etsa (din va millatga xizmat ilm va oqillik ila bo'lur) shu ilm zamoni tahsil qilmog'i uchun harakat qilmog'ingiz lozimdur» [9]. Jadid maktablarida o'qib, ilmli va zamon talabiga javob bera oladigan kadrlarni yetkazish uchun jadidlar kurashdilar. Bu bilan esa ijtimoiy-siyosiy, milliy-madaniy taraqqiyotda muhim o'rinlarda bo'lishimizni, Turkistonni mustaqil bo'lib ravnaq etishini uqdirdilar. Shuning uchun ham "Turkestanskiy golos" gazetasida yozilishicha, «Rus-tuzem maktablarining vaqti o'tdi. Musulmonlar bunga aniq ishonch hosil qilib, rus maktablari, o'rniga o'zlarining mahalliy maktablarini ochishni ko'paytirdilar» [10].

Mustamlaka ma'murlari va politsiya nazorati ostida bo'lishiga qaramasdan, jadidlar ma'rifatparvarlik harakatlarini kuchaytirib bordilar. Ular gazeta, jurnallar, kutubxonalar, nashriyotlar va teatrlar tashkil

qildilar. Bularning hammasini o‘zlarining shaxsiy mablag‘lari yoki xayriya jamiyatlari hisobiga ochdilar. Misol uchun, Samarqandda 1913-yilning may oyidan boshlab Mahmudxo‘ja Behbudiy boshchiligida «Samarqand» gazetasi chiqa boshladi. Gazeta Samarqandda «Gazarov va Smeyanov» tipografiyasida nash etilgan. Bu gazetani nashr etish uchun Toshkentda ochilgan taraqqiyparvar musulmonlarning «Umid» xayriya jamg‘armasi Munavvarqori Abdurashitxonov orqali 500 rubl jo‘natganlar. «Samarqand» gazetasida Turkiston mustaqilligi, ijtimoiy-iqtisodiy hayot to‘g‘risida maqolalar o‘z aksini topgan edi. Bu gazetaning 44 ta soni chiqqanidan keyin mablag‘ yetishmovchiligi sababli nashr ishi to‘xtatiladi.

1913-yilning 20-avgustidan boshlab Samarqanddagi «Gazarov va Smeyanov» bosmaxonasida yana Behbudiy boshchiligida rus, o‘zbek va tojik tillarida musulmonlarning «Oyina» jurnali nashr qilina boshlandi. 1913–1915-yillarda jurnalning 68 nomeri (1720 bet) chiqib, 1915-yilning iyun oylarida to‘xtatiladi. Bu gazeta va jurnalda ko‘plab jadidlar Hoji Muin, Vasliy, Fitrat, Munavvarqori va boshqa jadid namoyandalari o‘z maqolalari bilan ishtirok etdilar. Turkiston xalqining savodli va ma’rifatli, to‘q va farovon bo‘lishi, uni ozod va obod vatanga aylantirish, birinchi navbatda, mustaqillikka erishish, mustamlakachilik iskanjasidan xalos bo‘lish jadidchilik harakatining asosiy maqsadi edi. Shunday shiorlar va maqsadlar bilan jadidlar o‘z faoliyatlarini, kuch-g‘ayratlarini millatni uyg‘otishga bag‘ishladilar, mahalliy xalqning ko‘zini ochib, yuzlarini yorug‘ etish uchun jonlarini tikdilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘rganilayotgan davrda viloyatda ruslar mahalliy aholini ruslashtirish, iloji boricha tashqi dunyodan ajratib qo‘yish maqsadida rus-tuzem maktablari ochdilar. Mahalliy xalqni bu maktablarga jalb etishga intildilar. Lekin majburiy ochilgan rus-tuzem maktablari mahalliy xalqqa begona edi. Shunday vaziyatda jadid namoyandalari o‘z g‘oyalari bilan tarix sahnasiga kirdilar. Bu buyuk ma’rifatparvarlar xalqimizni ma’rifatli, dunyoviy bilimlarga ega bo‘lishi uchun kurashdilar. Farzandlarimiz chet davlatlarning oliy o‘quv yurtlarida o‘qib, ilm o‘rganishi kerak, deb kurashdilar. Maktablar ochib, kitoblar, darsliklar yozib musulmon farzandlarini bepul o‘qishlari uchun sharoitlar yaratdilar. Bu maktablar Turkiston xalqlari tarixida ma’rifat o‘chog‘i bo‘lib qoldi. Ular XX asr boshida Turkiston aholisining milliy ong va madaniyatini qaytadan yuksalishiga turtki bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Айни С. Таърихи инқилоби Бухоро. Душанбе, 1987, с. 31.

(2). Абд-ур-Рауфъ. Рассказы индийского путешественника («Бухара как она есть»). Самарканд, Махмудхожа Бегбуди. 1913, с. 79.

(3). Алматов. Новометодные школы, Самарканд, 1906, 20 май, № 37, с. 3.

(4). М.Ф.Махмадхожа Бегбуди. “Наука и просвещение”, 1922, № 1, с. 23.

(5). Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикрлар тарихидан. Акад. М.М.Хайруллаев таҳрири остида. Т., “Ўзбекистон”, 1995, 224-бет.

(6). Андреев Г. Туземцы и просвещение. “Туркестанский голосъ”, 1916, 12 ноябрь, № 103.

(7). Еникеев А. Мусульманская школа в Туркестане и ее прошлом и настоящем виде. “Туркестанский учитель”, 1917, № 7, с. 197.

(8). Пясковский А.В. Революция 1905–1907 гг. в Туркестане. М., 1958, с. 558.

(9). Авазов Н. Туркистонда ҳақ олинмади, берилди. “Ёшлик”, 1991, № 10, 43-бет.

(10). Андреев Г. Туземцы и просвещение. “Туркестанский голосъ”, 1916, 12 ноябрь, № 103.

Xakimova Maksadxon Dilshodbekovna (O‘zbekison davlat Jahon tillari universiteti “3-ingliz tili integrallashgan kursi” kafedrasi katta o‘qituvchisi; maqsadxonhakimova@gmail.com; https://orcid.org/0000-0002-3593-4888; УДК:82.01/09:82.145)

ADRIAN HENRI IJODIDA SHE’RIYAT VA SAN’ATNING ESTETIK-IDEOLOGIK TALQINI

Annotatsiya*. Maqola o‘z ijodiy faoliyatida san’atning bir necha turlarini uyg‘unlashtira olgan shoir, rassom va musiqachi Adrian Henrining hayoti va ijodiga bag‘ishlangan. Maqolada shoirning o‘quvchilarini hayotning bebaqo tabiati, muhabbat va ijodning tugmas kuchi haqida o‘ylab ko‘rishga chorlashi, shuningdek, uning Liverpul shoirlari harakatiga qo‘shgan hissasi, ingliz adabiyoti va san’atiga ko‘rsatgan ta’siriga urg‘u beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Liverpul shoirlari, adabiyot, san’at, she’r, rasm, rassom, shoir, surat.*

Хакимова Максадхон Дилшодбековна (старший преподаватель кафедры интегрированного курса английского языка №3, Узбекский государственный университет мировых языков)

ЭСТЕТИЧЕСКОЕ И ИДЕОЛОГИЧЕСКОЕ ТОЛКОВАНИЕ ПОЭЗИИ И ИСКУССТВА В ТВОРЧЕСТВЕ АДРИАНА ГЕНРИ

Аннотация. *Статья посвящена жизни и творчеству Адриана Генри, поэта, художника и музыканта, который сумел объединить различные виды искусства в своей творческой деятельнос-*